

**“O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining
69-sonli bayonnomasi**

Yig‘ilish o‘tkazilgan joy: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yax‘yo G‘ulomov ko‘chasi, 1-uy, “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) majlislar zali.

O‘tkazish sanasi va vaqti: 2026-yil 10-mart, soat 12⁰⁰.

Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlarning umumiy soni: 33 198 274 dona ovoz beruvchi aksiyalar.

Umumiy yig‘ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlarning soni: 33 042 224 dona ovoz beruvchi aksiyalar.

Qatnashdilar:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bosh mutaxassis – Ergashev Alisher Raxmatullaevich – 33 042 224 dona ovoz beruvchi aksiyalar egasi.

Kvorum - 99,47 %, ya‘ni 33 042 224 dona ovoz beruvchi aksiya.

Raislik qiluvchi:

Kuzatuv kengashi raisi – Sofarov Shuhrat Uralovich.

Yig‘ilish kotibi:

Jamiyat boshqaruvining aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bosh menejeri Xasanov Timur Baxtiyor o‘g‘li.

Yig‘ilishga taklif etilgan ishtirokchilar:

Jamiyat boshqaruvi a‘zolari va mas‘ul xodimlari.

Yig‘ilishni Sh. Sofarov ochib, kun tartibidagi masalalar ko‘rib chiqilishidan oldin yig‘ilish rayosati tarkibini hamda yig‘ilish kotibini tasdiqlash taklifini kiritdi va bu taklif ma‘qullandi.

Rayosat tarkibiga kuzatuv kengashi raisi Sh. Sofarov va boshqaruv raisi Sh. Rasulovni kiritish, yig‘ilish kotibi qilib boshqaruvning aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bosh menejeri T. Xasanov tayinlandi.

Yig‘ilishi raisi Sh. Sofarov sanoq komissiyasi raisi S. Saipovga kvorumni e‘lon qilish uchun so‘z berdi.

S. Saipov yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytgacha qadar jami 33 042 224 dona ovoz beruvchi aksiyalar egalarining qonuniy vakillari ro‘yxatga olinganligini, ya‘ni kvorum 99,47 foizni tashkil etishini e‘lon qildi hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (keyingi o‘rinlarda – **Qonun**) 68-moddasiga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatli, ya‘ni kvorum mavjud deb topilishini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng, Sh. Sofarov yig‘ilish kun tartibini o‘qib eshittirdi:

KUN TARTIBI:

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining Reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zagrosug'urta" AJning 2025-yil yakunlari bo'yicha xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BXMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash va unga to'lanadigan haq miqdorini belgilash.
4. "O'zagrosug'urta" AJ kuzatuv kengashi tarkibidagi ayrim a'zolarining vakolatini muddatidan oldin tugatish.
5. "O'zagrosug'urta" AJ kuzatuv kengashi a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha yig'ilish raisi so'zga chiqib, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 66-moddasida ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlash, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntirish, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntirish, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlash, ovozlarni sanab chiqish va ovoz berish yakunlarini chiqarish, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzish, ovoz berish byulletenlarini jamiyatning arxiviga topshirish uchun jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan kamida uch kishidan iborat sanoq komissiyasi tuzilishi, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yilganligini bildirdi.

Jamiyat kuzatuv kengashining 2026-yil 13-fevraldagi majlisi qarori bilan o'tkazilayotgan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi uch kishidan iborat bo'lib, ular ishtirokchilarga tarqatilgan materiallarda batafsil aks ettirilgan, quyidagi tarkibda sanoq komissiyasi tuzilganligini va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni o'qib eshittirdi:

Saipov Sanjar Saipovich (komissiya raisi);

Shukurov Doniyerxon Turaxanovich;

Xasanov Farxod Xaydarovich.

Yig'ilish raisi kun tartibidagi masala yig'ilish ishtirokchilari tomonidan muhokama qilingandan so'ng, Saipov Sanjar Saipovich (komissiya raisi), Shukurov Doniyerxon Turaxanovich, Xasanov Farxod Xaydarovich (komissiya a'zolari) tarkibida uch kishilik sanoq komissiyasi tuzishni ovozga qo'ydi.

Ovoz berish natijasi:

“tarafdor” - 33 042 224 ta ovoz, “qarshi” - yo‘q, “betaraf” -yo‘q.

Qabul qilingan qaror:

1.1. Sanoq komissiyasi a‘zolari soni uch kishidan iborat bo‘lgan, Saipov Sanjar Saipovich (komissiya raisi), Shukurov Doniyerxon Turaxanovich, Xasanov Farxod Xaydarovich (komissiya a‘zolari) tarkibida sanoq komissiyasi tuzilsin (*1-ilova*).

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha A. Ergashev so‘zga chiqib, quyidagilarni aytib o‘tdi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasiga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiradi.

Shunga ko‘ra, bugungi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi mobaynida kun tartibining har bir masalasi bo‘yicha ma‘ruza olib borishga o‘n daqiqadan ko‘p bo‘lmagan vaqt berilishi va ushbu masalalar bo‘yicha savol-javoblar uchun besh daqiqadan ajratilishi lozimligini aytib o‘tdi. Agar yig‘ilish uzluksiz 2 soat davom etsa, 15 daqiqadan kam bo‘lmagan va 30 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan tanaffus e‘lon qilinadi. Agarda majlis uzluksiz 4 soat davom etsa, 40 daqiqadan kam va 2 soatdan ko‘p bo‘lmagan tanaffus e‘lon qilinadi. Hamma masala ko‘rib chiqilgandan so‘ng sanoq komissiyasi tomonidan ovoz berish byulletenlarini sanab chiqish va hisobot berishga 10 daqiqagacha, ovoz berish natijalarini inobatga olgan holda qabul qilingan qarorni o‘qib eshittirishga 20 daqiqagacha vaqt belgilash taklif qilindi.

Yig‘ilish ishtirokchilari muhokamasidan so‘ng A. Ergashev kun tartibidagi masala bo‘yicha ovoz berishni taklif qildi.

Ovoz berish natijasi:

“tarafdor” - 33 042 224 ta ovoz, “qarshi” - yo‘q, “betaraf” -yo‘q.

Qabul qilingan qaror:

2.1. Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamenti *2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan boshqaruv raisi Sh. Rasulov so‘zga chiqib, quyidagilarni ma‘lum qildi.

Qonunning 59-moddasiga asosan; majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan

eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlash belgilangan.

Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BXMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish jamiyat kuzatuv kengashining 2025-yil 22-dekabrdagi 12-son yig'ilishi bayonnomasi bilan ma'qullangan.

"O'zagrosug'urta" AJning 2025-yil yakunlari bo'yicha xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BXMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish uchun etender.uzex.uz platformasiga mazkur xizmatni xarid qilish maqsadida Jamiyat tomonidan 25120012463549-sonli lot joylashtirilgan. Lot bo'yicha 2 ta auditorlik tashkiloti MChJ "TTT-AUDIT" va "HLB Tashkent" MChJ auditorlik tashkilotlaridan takliflar kelib tushgan. Kelib tushgan takliflar platforma yordamida kiritilgan texnik topshiriqqa muvofiqligi tekshirilib, to'plangan ballar bo'yicha "HLB Tashkent" MChJ auditorlik tashkiloti 100 ball to'plab tanlovda g'olib deb topilgan.

Masala Kengash a'zolari tomonidan muhokama qilinganidan so'ng, ovozga qo'yildi.

Ovoz berish natijasi:

"tarafdor" - 33 042 224 ta ovoz, "qarshi" - yo'q, "betaraf" - yo'q.

Qabul qilingan qaror:

3.1. Jamiyatning boshqaruv raisi Sh. Rasulovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinshin.

3.2. Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo'yicha xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BXMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazadigan auditorlik tashkilot sifatida **"HLB Tashkent" MChJ** tanlansin va uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdori QQSni hisobga olgan holda – **1 064 700 408,3** (bir milliard oltmish to'rt million etti yuz ming to'rt yuz sakkiz so'm 3 tiyin) so'm miqdorida belgilansin va u bilan tegishli tartibda shartnoma imzolaniib, ishlarning o'z vaqtida bajarilishi ta'minlansin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan Kengash raisi Sh. Sofarov so'zga chiqdi va quyidagilarni ta'kidlab o'tdi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari F. Karabayev, A. Mo'minov va A. Radjabovlarning xizmat vazifalari hajmining sezilarli darajada ortganligi bilan Jamiyat

Kuzatuv kengashi a'zolidan o'z xohishiga ko'ra chiqish to'g'risida yozma murojaatlar taqdim etilganligi ma'lum qilindi.

Qonunning 59-moddasiga muvofiq Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolati doirasiga kirishini inobatga olib, Jamiyat Kuzatuv kengashi ayrim a'zolarining vakolatini muddatidan oldin tugatish va boshqa nomzodlarni saylash masalasini Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritish taklif qilinmoqda.

Kun tartibidagi masala Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan muhokama qilinib, ovoz berildi.

Masala Kengash a'zolari tomonidan muhokama qilinganidan so'ng, ovozga qo'yildi.

Ovoz berish natijasi:

“tarafdor” - 33 042 224 ta ovoz, “qarshi” - yo‘q, “betaraf” - yo‘q.

Qabul qilingan qaror:

4.1. “O‘zagrosug‘urta” AJ Kuzatuv kengashi raisi Sh. Sofaroving kun tartibidagi masala yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4.2. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari Rustamov Erkin Erkamovich, Muminov Akrom Adxamaliyevich va Karabayev Farrux Esanaliyevichlarning vakolatlari belgilangan tartibda tugatilgan deb hisoblansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan Kengash raisi Sh. Sofarov so'zga chiqdi va quyidagilarni ta'kidlab o'tdi.

Jamiyat Boshqaruviga Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil 9-fevraldagi 02/09-2-17/555-sonli xatiga muvofiq, “Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 43–44-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori talablariga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan uch yil muddatga saylanishi hamda davlat ulushi bo'yicha nomzodlar tanlov asosida shakllantirilishi belgilangan. Shu munosabat bilan, Jamiyat ustav kapitalidagi 99,47 foiz (33 042 224 dona) davlat ulushi bo'yicha amaldagi kuzatuv kengashi a'zolari Rustamov Erkin Erkamovich, Muminov Akrom Adxamaliyevich va Karabayev Farrux Esanaliyevichlar o'rniga o'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ xizmat boshlig'i Rashidov Farrux Ismoilovich, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'limi boshlig'i Mirzamahmudov Ma'rufjon Maxamadsharif o'g'li hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

kafedra mudiri Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich nomzodlarini Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylash taklif etilmoqda.

Masala Kengash a'zolari tomonidan muhokama qilinganidan so'ng, ovozga qo'yildi.

Ovoz berish natijasi:

"tarafdor" - 33 042 224 ta ovoz, "qarshi" - yo'q, "betaraf" - yo'q.

Qabul qilingan qaror:

5.1. "O'zagrosug'urta" AJ Kuzatuv kengashi raisi Sh. Sofaroving kun tartibidagi masala yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5.2. Tanlov natijalariga ko'ra davlat ulushi bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashi a'zoliciga quyidagi nomzodlar uch yil muddatga saylansin:

- Rashidov Farrux Ismoilovich;
- Mirzamahmudov Ma'rufjon Maxamadsharif o'g'li;
- Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich.

5.3. Jamiyat boshqaruvi aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bosh menejeri T. Xasanovga mazkur qarorni belgilangan tartibda rasmiylashtirish va ijrosini ta'minlash topshirilsin.

Yig'ilish raisi

 **Sh. Sofarov**

Yig'ilish kotibi

 **T. Xasanov**